

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLLIGI



**PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
YO'NALISHLARDA
YOSH TADQIQOTCHILARNING O'RNI**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

(2026-yil 10-fevral)



Toshkent – 2026

TAHRIR HAY’ATI

1. **M.A.NASIROVA** – filologiya fanlari nomzodi, professor (mas’ul muharrir).
2. **T.M.ISAQULOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
3. **Sh.G‘.KARIMOVA** – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
4. **J.B.MAMADIYOROV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
5. **U.B.MAMANAZAROV** – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).
6. **Y.B.MAXMUDOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).

BOSHLANG'ICHI SINIF O'QUVCHILARINI MA'NAVIYIY-AXLOQIY SHAKLLANTIRISHDA XALQ O'YINLARINING AHAMIYATI

Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna

Oriental universiteti Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrası katta o'qituvchisi

Nig'matullayeva Zuxra

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ichi sinf o'quvchilarini ma'naviyiy-axloqiy shakllantirishda xalq o'yinlarining ahamiyati borasidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, axloq, xalq o'yinlari, jamiyat.

Annotation: This article discusses the importance of folk games in the spiritual and moral development of primary school students.

Keywords: spirituality, morality, folk games, society.

Аннотация: В данной статье рассматриваются взгляды на значение народных игр в духовно-нравственном формировании учащихся начальных классов.

Ключевые слова: духовность, нравственность, народные игры, общество.

Ma'naviyatning inson va jamiyat hayotidagi mohiyati va ahamiyati haqida fikr yuritganda, bu borada asrlar davomida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan bir masalaga alohida to'xtalib o'tish lozim. Ya'ni, odamning kundalik hayoti va faoliyatida ma'naviy va moddiy asoslar bir-biriga nisbatan qanday o'rin tutishi, ularning qaysi biri ustuvorlik kasb etishi haqida turli-tuman, ba'zan esa ziddiyatli fikr va qarashlar bo'lganini va bunday tortishuvlar hozirgacha davom etayotganini kuzatish qiyin emas.

Bashariyat tarixida yashab o'tgan ne-ne buyuk allomalar bu masala bo'yicha ko'plab asarlar yaratib qoldirgani ham shundan dalolat beradi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi esa bu jarayonning poydevori hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, xalq o'yinlari orqali o'quvchilarda milliy ma'naviyatni shakllantirish dolzarb masala bo'lib, bu o'yinlar nafaqat bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishiga, balki ularning axloqiy fazilatlarini tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

Xalq o'yinlari orqali bolalarda halollik, do'stlik, hamjihatlik, sabr-toqat, jasorat kabi fazilatlar shakllanadi. Bu o'yinlar bolalarning ijtimoiylashuviga, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga, milliy qadriyatlarni anglash va ularga hurmat bilan qarashga yordam beradi.

Milliy ma'naviyat – bu xalqning tarixi, madaniyati, an'analari, qadriyatlari va e'tiqodlarining majmui. O'quvchilarni milliy ma'naviyat bilan tanishtirish, ularda

milliy gʻurur va vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Xalq oʻyinlari esa bu borada beqiyos ahamiyatga ega boʻlgan boy manbadir. Xalq oʻyinlari – bu asrlar davomida xalq ommasi tomonidan yaratilgan va avlodan-avlodga oʻtib kelayotgan oʻyinlardir. Ularda milliy madaniyat, anʻana va qadriyatlar mujassamlashgan. Xalq oʻyinlari: Milliy gʻurur va vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirishga yordam beradi: Oʻyinlardagi milliy timsollar, qoʻshiqlar va harakatlar oʻquvchilarda milliy maʼnaviyatga boʻlgan muhabbat va gʻururni uygʻotadi. Ijtimoiylashuvga yordam beradi: Oʻyinlarda oʻquvchilar jamoa boʻlib harakat qilishni, bir-birlari bilan hamkorlik qilishni, oʻzaro munosabatlarni oʻrnatishni oʻrganadilar. Har tomonlama rivojlanishga yordam beradi: Oʻyinlardagi harakatlar, muammolarni yechish va strategik fikrlash oʻquvchilarning jismoniy va aqliy qobiliyatlarini vojlantiradi. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi: Oʻyinlardagi rollarni oʻynash, harakatlarni bajarish, qoidalarni oʻzgartirish oʻquvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Milliy maʼnaviyatni shakllantirishda yoshlar tarbiyasida muhim roʻl egallaydi. Hozirgi kunda boshlangʻich sinf oʻquvchilarning maʼnaviy qadriyatlari bilan tanishishi ularning jamiyatga yanada moslashishi va insoniy fazilatlarini egallashida asosiy omillardan foydalanish xalq oʻyinlari muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular nafaqat oʻquvchilarning qiziqishini uygʻotadi, balki milliy qadriyatlarni oʻrgatishning samarali usul hisoblanadi. Xalq oʻyinlari asrlar davomida shakllangan va har bir xalqning urf-odatlarini, tarixi hamda madaniyatini aks ettirgan etdi, bunday oʻyinlar orqali bollar asosan .

- ✓ jamoaviy hamkorlikni oʻrganadilar .
- ✓ milliy anʻanalarga hurmat bilan qarashni shakllantiriladi.
- ✓ maʼnaviy qadriyatlar ,masalan ,halollik, doʻstlik mehnatsevarlik kabi xislatlarni egallaydilar.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining milliy maʼnaviyatini shakllantirish - taʼlim jarayoni muhim ahamiyatga ega boʻlgan vazifalardan biridir. Ushbu jarayon oʻquvchilarga oʻz xalqining madaniyati va anʻanalarini oʻrgatish, ularni kelajakda oʻz millatiga va uning qadriyatlariga hurmat bilan qarashga tayyorlash maqsadida amalga oshiriladi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun milliy maʼnaviyatni shakllantirish jarayoni, oʻz navbatida, xalq oʻyinlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

1. Milliy maʼnaviyat va uning ahamiyati deganda nimani chunasiz?

Milliy maʼnaviyat har bir xalqning tarixiy, madaniy, va etik qadriyatlarini oʻz ichiga oladi. U shaxslar va jamiyat ichidagi ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi.

2. Xalq o'yinlari va ularning ta'limdagi roli

Xalq o'yinlari asrlar davomida shakllangan va milliy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, bolalar uchun qiziqarli va o'zgacha faoliyatdir. O'yinlar davomida:

- Ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish: O'quvchilar xalq an'analari va urf-odatlarini orqali milliy qadriyatlarni o'rganadilar.

- Sho'rollik va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish: O'yinlar guruhda ahamiyatli o'yinchoqlardir, bu esa bolalarga jamoaviy ishni, muloqotni va strategik fikrlashni o'rgatadi.

- Sog'lom raqobatlarini shakllantirish: O'yin jarayonida bolalar raqobatlashishga imkoniyat yaratadi, bu esa ularning o'z qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

3. Ijtimoiy pedagogik munosabatlar

Ijtimoiy pedagogik munosabatlar, birinchi navbatda, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotga va kooperatsiyaga asoslanadi. Bu munosabatlar:

- O'qituvchi roli: O'qituvchilar xalq o'yinlarini ta'lim jarayoniga joriy etganida, u o'quvchilarning qiziqishini oshirish, an'analarni etnografik nuqtai nazardan tushunishga yordam beradi.

- O'quvchi roli: O'quvchilar esa bir-birlari bilan o'zaro fikr almashar ekan, madaniy farqliklarni qabul qilish va hurmat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Xalq o'yinlari boshqariladigan ijtimoiy pedagogik munosabatlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy ma'naviyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi ishlab chiqadigan strategiyalar va o'yinlarning o'ziga xosligi o'quvchilarni nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham rivojlantiradi. Ushbu jarayonda jamoaviy ish, do'stlik va o'zaro hurmat kabi ijtimoiy qadriyatlar bilan bir qatorda, bolalarning milliy ongi shakllanadi.

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2017. – B. 167–169.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'g'risidagi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2022-yil 28-yanvar, PF–60-son. – Xalq so'zi, 2022. – 29-yanvar. – №22 (8084). – URL: <https://lex.uz/docs/5841063>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni, 2019-yil 29-aprel, PF–5712-son // Lex.uz. – URL: <https://lex.uz/docs/4326039>

4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni, 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ–637-son // Xalqso‘zi, 2020. – 24-sentyabr. – № 196. – URL: <https://lex.uz/docs/5013005>

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2018-yil 8-dekabr, 997-son // Lex.uz. – URL: <https://lex.uz/docs/4090433>

Ilmiy adabiyotlar

1. Abdullaeva Z. Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish. – Toshkent: Fan, 2017.

2. Allayarova M. Xalq o‘yinlari orqali bolalarni har tomonlama rivojlantirish. – Qarshi: Nasaf, 2018.

3. Amonov A. O‘yin faoliyatining pedagog ikimkoniyatlari. – Toshkent: Yangi asravlodi, 2013.

4. Axmedova M. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.

5. G‘anieva N. Boshlang‘ich ta’limda ma’naviyat asoslari. – Namangan: Ilm vataraqqiyot, 2022.

6. G‘ofurov K. Xalq og‘zaki ijodi va o‘yinlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2012.

7. Jo‘rayev N. Xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati. // Pedagogika va psixologiya jurnali, 2019, №3.

8. Nasriddinova D. Milliy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalash. – Buxoro: BuxDU, 2019.

9. O‘ralov S. Milliy qadriyatlar va ularning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni. – Toshkent: Ma’naviyat, 2014.

10. Qodirova D. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.

11. Rasulova R. Boshlang‘ich sinf darslarida xalq ijodidan foydalanish. – Termiz: Ilm Ziyo, 2020.

12. Sharipova M. Xalq o‘yinlari orqali o‘quvchilarni tarbiyalash. – Samarqand: Zarafshon, 2015.

13. To‘xtayeva N. O‘yinlar orqali tarbiyaviy yuqsadlarga erishish yo‘llari. // Boshlang‘ich ta’lim jurnali, 2021, №2.

14. Выготский Л. С. Бола психологияси. – Тошкент: Фан, 2005.

15. Xolmurodova Z. Ma’naviy tarbiyaning psixologik asoslari. – Toshkent: Fan,

93. **Mirsagatova Nargiza**
Sayfullayevna,
Nig‘matullayeva Zuxra Boshlang‘ichi sinf o‘quvchilarini
ma‘naviyiy-axloqiy shakllantirishda xalq
o‘yinlarining ahamiyati..... **430**